

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti Ta'lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi, PhD, MurtaZayev Abror taqrizi ostida

INGLIZ TILIDAGI IQTISODIY TERMINLAR ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xamidova Durдона Muxtorovna

O'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Email: dhamidova10@gmail.com

ORCID ID: [0000-0002-1487-6690](https://orcid.org/0000-0002-1487-6690)

ANNOTATSIYA: Har qanday til salmoqli qismini maxsus birliklar – terminlar tashkil qiluvchi o'z ichki lug'aviy tarkibiga ega. Terminologik tarkib ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid maxsus leksik qatlamni qamrab oladi. Terminologiyaning shakllanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Bunda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holati, tarixiy taraqqiyoti muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslik turli soha terminlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, boshqa til birliklari bilan aloqalari kabi xususiyatlarini tadqiq qilgan holda ular tilning qonun-qoidalariga mos ravishda tartibga soladi, unifikatsiya qiladi. Mazkur maqoladan ko'zda tutilgan asosiy **maqsad** ingliz tili iqtisodiy terminologiyasining taraqqiyot bosqichlarini izchil o'rganish, sohaga oid terminlarni tartibga solish, ularning adabiy til leksik qatlam birliklari bilan munosabatlarini tahlil qilishdan iborat bo'lib, ingliz tili terminosistemasining tizimli shakllanishida katta ahamiyatga ega. Bundan ayni damda o'zbek tilida iste'molda bo'lgan iqtisodiy terminlarning asli kelib chiqish ildizlari bilan taniishish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tadqiqot tarixiy-qiyosiy, etimologik tahlil metodlari, shuningdek, derivatsion tahlil **metodlaridan** keng foydalanilgan holda amalga oshirildi. **Xulosa** sifatida, aytish mumkinki, jamiyat rivojlanar ekan, o'zaro xalqaro aloqalar va global integrallashuv natijasida dunyoda sof holdagi, lug'at boyligi hech bir o'zlashmalarsiz sof holda saqlanib qolmaydi. Har bir til boshqasidan turli birliklarni qabul qiladi. Bu borada tilning o'ziga xosligini saqlab qolish bugungi kun tilshunoslarining eng muhim vazifalaridan biridir.

KALIT SO'ZLAR: terminologiya, iqtisodiy terminlar, neologism, derivatsiya.

KIRISH: Zamonaviy iqtisodiy terminlar ingliz tilida ko'p asrlik tarixiy jarayonlar, globalizatsiya, ilm-fan va texnologiyalar rivoji natijasida shakllangan. Ushbu terminlarning etimologik tahlili ularning manbalari, evolyutsiyasi va boshqa tillar ta'sirini o'rganishga imkon beradi. Quyida zamonaviy iqtisodiy atamalar etimologiyasining asosiy xususiyatlari yoritiladi.

Terminologiya muayyan fan sohasiga tegishli maxsus tushunchalarni ifodalovchi birliklar yig'indisini o'rganuvchi tilshunoslik fani bo'limi bo'lib, hozirgi davrga qadar ko'plab olimlar mazkur soha rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Jumladan, 1933-yilda mashhur termishunos olim Lotte va akademik Kaplugin AQSh Fanlar Akademiyasi qoshida keyinchalik Fan va texnika terminologiyasi komiteti deb nomlanuvchi Texnik terminologiya komissiyasini tashkil qiladi [Trojar, 2017; 36]. Mazkur komitet ingliz va boshqa tillar terminologiyasini atroflicha o'rgandi va terminologiyaning, xususan, ingliz tili terminologiyasining etimologiyasi va tarixiy taraqqiyotini bosqichlarga bo'lib tadqiq etdi

MATERIALLAR VA USLUBLAR: Xalqaro aloqalar va turli bosqinchilik siyosati natijasida tilda o'zlashma so'zlar salmog'i orta boshlaydi. Bunga yana bir sabab, avvalo, mamlakatning demografik joylashuvi va hududda tashkil topgan davlatlarning o'zaro savdo-sotiq aloqalaridir. Bundan tashqari, terminlarning muayyan tilga o'zlashtirilishida asosiy omillardan

biri sifatida fan-texnika sohasidagi yangi buyumga nom topish zarurati ekanligi ta'kidlanadi [Langacker, 1967; 181]. O'zga tillardan terminlar tildagi bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida olib kirilgan degan qarash ko'p olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Bu borada H. Madvaliyev quyidagi fikrni ilgari suradi: "Terminlarning qo'llanish, tarqalish ko'lami muayyan terminologik sistema bilan cheklangan bo'lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi" [Madvaliyev, 2019; 6]. Bu borada, har bir davrning o'ziga xos ijtimoiy siyosiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tilda haligacha to'liq o'rganilmagan jihatlar, jumladan, fan-texnika asrida ingliz tili leksik tarkibini boyitgan muayyan terminlarning tub ildizlari borasida aniq fikrlarning yetarlicha yoritilmagani, bir necha taxminlar ham ilgari surilgan holatlarni ko'rib chiqish, va amaliy tavsiyalar berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan.

Bugungi kunda ingliz tilidagi iste'molda bo'lgan iqtisodiy terminlarning tarixiy taraqqiyoti, etimologiyasini, ularning tilda qay tarzda paydo bo'lgani va semantikasi, o'zga tillardan so'z olish natijasida tilda yuzaga kelgan variantdoshlik hodisasi, determenlashuv jarayonlarini tarixiy – qiyosiy, tarixiy-farqlash metodlaridan foydalangan holda tadqiq etildi, shuningdek, tildagi olinma so'zlar ko'lamini aniqlash maqsadida statistik metodga ham murojaat etdik.

Mavjud terminologik lug'atlarning qiyosiy tahlili, shuningdek, leksikografik adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, leksikografik parametrlar o'rtasida ma'lum munosabatlar mavjud bo'lib, ba'zi parametrlarni amalga oshirish boshqalarni amalga oshirish shakliga ta'sir qilishi mumkinligida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR: Bozor munosabatlarining mohiyati, shakllari, ular o'rtasidagi nisbat ham doimo o'zgarib turadi. Demak, iqtisodiy ta'liminlar rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri, bu uning doimo harakatda, o'zgarish, rivojlanishda ekanligidir. Bir mamlakat chegarasida iqtisodiy ta'limot ta'siri ostida iqtisodiy siyosat har doim rivojlanishda bo'lishi kerak.

Quyida zamonaviy iqtisodiy terminlardan bir nechtasining tarixiy-etimologik tahlilini ko'rib chiqamiz:

"business" – biznes, qadimgi ingliz tilida bu termin "g'amxo'rlik, tashvish" ma'nolarini anglatuvchi *"bisignes"* so'zi o'zagidan shakllangan bo'lib, *Anglo-sakson lahjasida "biseg, bisgung"* – biznes (ot), *"bysgian"* – band qilmoq, egallamoq(fe'l, Daniya tilida *"besig, "beezig"* – g'amxo'r, tashvishli, band, mashg'ul (sifat) ko'rinishlarida bo'gan. Fransuzcha *"besogne"* (ish, biznes) so'zi Dayfenbax got lahjasiga tegishli bo'lib: *"anabiudan"* (buyurmoq – fe'l), *anabusns"* (buyruq – ot) [Wedghwood H, 1859; 310]; *bisig + nes* → *busy + ness = busyness* – "state of being much occupied or engaged" – "band yoki mashg'ul bo'lish holati" ma'nosini o'rta asrlargacha saqlab qoldi.(XIV asr) → *business* XVII asrdan boshlab zamonaviy ikki bo'g'inli – [biznes] deb talaffuz qiling boshlagan, shuningdek, ularni ma'no va qo'llanish doirasiga ko'ra *business* (biznes iqt. termin) va *busyness* (bandlik um. so'z) shakllarida XIV asr o'rtalariga kelib bir biridan farqlash boshlandi [Harper, 2001-2024]. Termin sifatida o'zlashgan birlik hisoblansada, ingliz tili leksikasi bilan yangi termin so'z birikmalarini hosil qildi: *business hours* – ish soatlari, *business connections* – biznes aloqalar, *business card* – tashrif qogoz, *business letters* – biznes yozishmalari.

Navbatdagi termin **"finance"** bo'lib, o'rta asrlar lotin tili sud-tibbiyot terminologiyasiga tegishli bo'lib, da'voni bekor qilish ma'nosida qo'llanilgan *"finis"* – *finalis digs* – (da'vo bekor qilinadigan) sud muhokamasi kuni, *finale judicium* – (da'vo bekor qilinadigan) sud qarori, *finalis concordia* – (da'vo bekor qilinadigan) kelishuv ma'nolarida; XV asrda Fransiya qarshi qiro'lning harbiy harakatlarida qatnashish uchun aholi Londonga chaqiriladi, keyinroq esa ayollar va yepiskoplar uchun bu farmon *evaz, boj* to'lash buyrug'I bilan almashtiriladi. Mazkur to'lov

lotin tilida “*finarcy, finire*”, fransuz tilida “*finer*” tarzida qo‘llanilgan [Partridge, 1966; 1130]. 1400-yillarda “tugatish, hal qilish” ma‘nosida qo‘llangan qadimgi fransuz termini “*finance*” – “to manage money” – “pulni boshqarish” ma‘nosida 1827-yildan, “to furnish money” – “pul bilan ta‘minlash” ma‘nosida 1866-yildan boshlab muomalada bo‘lgan [Harper, 2001-2024]. Fransuzcha “*finance*” o‘zagi asosida bir nechta inglizcha terminlar hosil qilingan: “*finances*”(pul mablag‘lari), “*financial*”(moliyaviy), “*financier*” (sarmoyador, moliyaviy operatsiyalarda mahoratli bo‘lgan, pul bilan taminlash, sarmoya kiritish yoki qarz berish bilan shug‘ullanuvchi capitalist shaxs yoki tashkilot), “*financer*” (moliyachi, muayyan korxonani pul bilan ta‘minlovchi shaxs) – aynan oxirgi ikki termin shaklan bir-biriga yaqin lekin ular mazmunan farqli bo‘lsalarda, ko‘p hollarda o‘zaro chalkashtiriladi.

Misollardan ma‘lum bo‘ldiki, sodda bir o‘zakli ingliz tili iqtisodiy terminlarining qatta qismini o‘zlashma qatlam tashkil qiladi. Birikmali terminlar esa, asosan, so‘nggi ikki davrda tilda hosil qilingan bo‘lib, ular tarkibiy qismlarining o‘z yoki o‘zlashma qatlam ekanligiga ko‘ra farqlanadi. Shuningdek, fan-texnika rivoji va globallashuv jarayoni XXI asr ingliz tili terminologiyasining xalqaro terminlar bilan boyishishiga katta hissa qo‘shdi.

Endilikda xalqaro til sifatida katta lug‘at boyligiga ega bo‘lgan ingliz tiliga chet tillardan yangi terminlar o‘zlashishi birmuncha kamaydi. Tilda mavjud leksik birliklardan foydalanib yangi terminlar hosil qilina boshlandi: *commodity price, purchase price, equilibrium price, ceiling price, price fall*;

Umumxalq tilidan so‘z olib yangi terminlar yasash ommalashdi. Ko‘pincha bu shaklda yasalgan termin so‘z birikmalar komponentlaridan eng kamida bittasi soha terminologiyasiga tegishli bo‘lmaydi, masalan, “*present*” – “mavjud bo‘lgan”, “hozirgi kundagi” so‘zi bilan: *present capital* – foydalanilayotgan sarmoya, *present market* – mavjud bozor, *present value tables* – joriy qiymat jadvallari; Komponentlari umumxalq tiliga tegishli so‘zdan iborat terminlar ham iste‘molga chiqdi, bunda ulardan biri terminlashadi va terminobirikmalar yasaydi: *number* – raqam – terminlashganda miqdor, *summa*, ko‘rsatkich; *number in system* – tizimdagi talabnomalar soni, *number of cases* – yuk o‘rinlari miqdori, *number of man-days* – ish kunlari soni, *booking number* – buxgarterlik qaydi tartib raqami, *construction number* – mahsulotga zavodda berilgan raqam.

Tilda mavjud bo‘lgan tushunchalar yangicha nomlar bilan atala boshladi va natijada variantlilik vujudga keldi: *distrain* (tilda mavjud termin) – *distress* (yangi nomi) - qarz to‘lanishini ta‘minlash maqsadida mol-mulkni hibslash, muzlatish.

XX asrning oxiri va XXI asrda yangi iqtisodiy atamalar texnologik rivojlanish va global iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi. Ko‘plab atamalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ingliz tilida yaratilgan yoki boshqa tillardan moslashtirilgan.

Bu davrda iqtisodiy termin neologizmlar va ulardan yasalgan terminlar yaratila boshlandi. Neologizmlar jamiyat taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan yangi tushuncha va narsa-hodisalarni nomlovchi birliklar bo‘lib, ular iqtisod sohasini ham chetlab o‘tmadi. Neologizm terminlar sohadagi yangicha yondashuvlar, yangi texnologiyayalni tushunishda yordam beradi. Ulardan ba‘zilarini ko‘rib chiqamiz. *brexit, bitcoin, diseconomy, economancy, industrial know-how, patented know-how, giroaccount, giro transaction, bankable, taxable, meltdown, white-collar worker, greenmailing, clearing bank* va boshqalar.

Bankable – 1. Sifat, “bankga omonatga qo‘ysa bo‘ladigan”, -able sifat yasovchi qo‘shimcha bilan yasalgan. Taxable termini yo‘sinida yasalgan. 2. Sifat “foyda keltiradigan, manfaatli” ma‘nosida sanoat, biznes termini sifatida ishlatiladi. Profitable, moneymaking, lucrative sifatlariga sinonim hisoblanadi.

XXI asr birinchi choragidan boshlab iqtisodiyotga *Cryptoeconomy* (kriptoiqtisodiyot) yoki *Digital Economy* (raqamli iqtisodiyot) tarmoqlari joriy qilindi va bu yangi raqamli iqtisodiyotda sa'y-harakatlar, tovarlar va xizmatlarni taqsimlashga kengroq e'tibor qaratila boshlandi. Kriptoiqtisodiyot Ethereum hamjamiyati tomonidan yaratilgan bo'lsa-da dastlab u Bitcoin kriptovalyutasining iqtisodiy imtiyozlardan foydalanish borasidagi imkoniyatlardan ilhomlangan holda ilgari surilgan [Nakomoto, 2008;4]. Kriptoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot aynan kriptografik texnika va iqtisodiyotning integrallashuvi natijasidir. 2015-yil mashhur iqtisodchi Vlad Zemfir bilan "Kriptoiqtisodiyot nima?" mavzusida bo'lib o'tgan suhbatda izoh berilishicha: "Markazlashtirilmagan raqamli iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilishni tartibga soluvchi protokollarni o'rganadigan rasmiy intizom bo'lib, kriptoiqtisodiyot ularni loyihalash va tavsiflashga qaratilgan amaliy fandir" [Zamfir, 2015; 00:00:58]. Shunday qilib bungi iqtisodiyot sohasi terminologiyasida eng ko'p termin neologizmlar aynan raqamli iqtisodiyot tarmog'iga tegishli deb ayta olamiz.

Shuningdek, iqtisodiyotning boshqa rivojlanayotgan tarmoqlarida ham neologizm-terminlar muomalaga kirmoqda. Ularning yaratilishida turlicha yondashuvni kuzatishimiz mumkin, masalan, *cyber finance* termini, avvaldan tilda mavjud bo'lgan *finance* terminini nisbatan yangi tushuncha *ciber* (kibernetikaga oid) so'zi bilan sifatlash orqali yangi tushuncha hosil qilingan. Bu borada ko'plab misollar keltirish mumkin. Quyidagi jadvalda ingliz tilida eng ko'p qo'llanuvchi termin neologizmlarga misollar, ularning o'zbek tilidagi ekvivalenti va ma'nolari bilan tanishishimiz mumkin.

jadval

Iqtisod sohasi neologizm terminlar

Ingliz tilida	O'zbek tilida	Termin-eologizmning o'zbekcha ta'rifi
cryptocurrency digital currency	kripto-valyuta elektron valyuta	Ichki hisob birliklari markazlashmagan to'lov tizimi tomonidan ta'minlanuvchi, to'liq avtomatik rejimda ishlovchi electron valyuta
cashback	cashback keshbek	Chakana va elektron savdoda mijozga qaytarib beriladigan chegirma va bonuslar
clearing	kliring	1. Naqd pulsiz hisob-kitoblar; 2. Birja bitimlari bo'yicha hisob-kitoblar
cyberfinance	kibermoliya	Kibermaydonda olib borilgan virtual moliya munosabatlari

Misollardan ko'rinib turibdiki, ingliz tilida so'nggi yillarda muomalaga chiqqan yangi terminlar xalqaro terminlar bo'lib, ular, asosan, tarjima qilinmasdan kichik juz'iy moslashishlar bilan o'zlashtirilmoqda. Ularning o'zbek tiliga olib kirilish jarayonlari, "o'zbekchalashtirish"i va lug'atlarda berilish holatlari, shuningdek, bu borada yuzaga keladigan muammolar va ular uchuntaklif etilishi mumkin bo'lgan muqobil yechimlarni kelgusidagi tadqiqot ishlarimizda batafsil bayon etamiz.

XULOSA: Etimologik tadqiqot jarayonida olimlar tomonidan o'rganilgan va yana o'rganilishi zarur bo'lgan jihatlarga duch keldik, jumladan, terminlarning leksik-semantik xususiyatlari, umumadabiy so'zlarning terminlashuv jarayonlari, xususan, ma'no ko'chishi, kengayishi va torayishi orqali terminlashuv yoki determinlashuv jarayonlari diqqatimizni tordi. Bu borada tadqiqotlarimizning kelgusi qismlarida batafsil to'xtalib o'tmoqchimiz.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, XX asr oxiri va XXI asrlarga kelib, fan-texnika rivojlanishi, globallashtirish jarayoni, shuningdek, lingua franca maqomi tufayli ingliz tili jahonning ko'plab tillariga o'zlashtirish manbaiga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Kelgusida

olib borilishi rejalashtirilgan tadqiqotlarimizda iqtisodiy terminlarning izohli va tarjima lugʻatlarda, shuningdek, umumiy va maxsus lugʻatlarda berilishi, ularning maʼno va struktur xususiyatlarini atroflicha oʻrganishni maqsad qilib qoʻydik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Antia, B.E. 2000. Terminology and language planning: An alternative framework of practice and discourse. Amsterdam: John Benjamins.
2. Clayton, David Roberts, and Douglas R. Bisson. (2013). A History of England. vol. – 2. 2nd ed. Pearson Higher Ed.
3. Golumbia, D. (2016). The politics of Bitcoin. Software as right-wing extremism. University of Minnesota Press.
4. Hensleigh Wedghwood. (2009). A Dictionary of English Etymology, Vol. 1: A D. University of Illinois. 540 pages.
5. Hensleigh Wedghwood. (2018). A Dictionary of English Etymology, Vol. 2: E P (Classic Reprint). Fb&c Limited, 576 pages.
6. Langacker R.V. 1967., Language and its structure. NY. Harcourt Brace.
7. Madvaliyev H. (2029). Oʻzbek terminologiyasi, Toshkent.
8. Matthew Paris. Life of Henry III. London. XIV c.
9. Mitja Trojar.2017., Wuther's view of terminology.Institut ze Slovenski jezik. 2017.
10. Musayev Q.M. Qudratov M.Sh. (2001). English- Russian – Uzbek Economic Dictionary. Fan. Toshkent.
11. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A peer-to-peer electronic cash system [White Paper]. <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>
- Zamfir, V. (2015). What Is Cryptoeconomics? Cryptocurrency Research Group Cryptoeconomicon. <https://youtu.be/9lw3s7iGUXQ?t=58>
- Ezra F. Vogel. (1963).Japan's New Middle Class: The Salary Man and His Family in a Tokyo Suburb. University of California Press. <https://doi.org/10.1525/9780520313682>
- Zamfir, V. (2015). What Is Cryptoeconomics? Cryptocurrency Research Group Cryptoeconomicon. <https://youtu.be/9lw3s7iGUXQ?>